



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI O'QITISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH: DIDAKTIK IMKONIYATLAR, METODIK MODEL VA AMALIY TAVSIYALAR

<https://doi.org/10.70728/qdpi.v08.i01.065>

Esonova Ro'zigul Ilhom qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlag'ich ta'lim) mutaxsissiligi 2- bosqich magistranti

riesonova@gmail.com

[tel: +998779990143](tel:+998779990143)

+998906430143

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanishning didaktik imkoniyatlari, metodik modeli va amaliy ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari AKT vositalari asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning bilish faolligi, o'quv motivatsiyasi va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim uchun mos metodik model va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tayanch so'zlar: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, boshlang'ich ta'lim, raqamli pedagogika, didaktik imkoniyatlar, metodik model, innovatsion o'qitish.

Аннотация. В данной статье проведен научный анализ дидактических возможностей, методической модели и практического значения использования информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в обучении учащихся начальной школы. Результаты исследования показали, что уроки, организованные на основе инструментов ИКТ, значительно повышают познавательную активность учащихся, мотивацию к обучению и навыки самостоятельного мышления. Также разработана методическая модель и практические рекомендации, подходящие для начального образования.

Ключевые слова: информационно-коммуникационные технологии, начальное образование, цифровая педагогика, дидактические возможности, методическая модель, инновационное обучение.

Abstract. This article scientifically analyzes the didactic possibilities, methodological model and practical significance of using information and communication technologies (ICT) in teaching primary school students. The results of the study showed that lessons organized

on the basis of ICT tools significantly increase students' cognitive activity, learning motivation and independent thinking skills. Also, a methodological model and practical recommendations suitable for primary education were developed.

Keywords: information and communication technologies, primary education, digital pedagogy, didactic opportunities, methodological model, innovative teaching.

Kirish. So‘nggi yillarda ta‘lim tizimida raqamlashtirish jarayonlari jadallashmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) pedagogik jarayonning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan bir paytda, ayniqsa, boshlang‘ich ta‘lim bosqichi o‘quvchilarida bilim olishga bo‘lgan dastlabki munosabatlar, tayanch kompetensiyalar hamda mustaqil fikrlash asoslari shakllanadigan muhim bir davri hisoblanadi. Shu sababli mazkur bosqichda AKTdan foydalanish masalasiga alohida ilmiy-pedagogik yondashuv sifatida qaraladi.

Boshlang‘ich ta‘lim bosqichi esa shaxs rivojlanishining poydevori bo‘lgani uchun AKTdan foydalanish nafaqat texnik ko‘nikma berish, balki o‘quvchilarda o‘quv-bilish faoliyati, muloqot, hamkorlik va ijodkorlikni bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Mahalliy tadqiqotlarda ham boshlang‘ich ta‘limda innovatsion texnologiyalar o‘quv jarayonini faollashtirishi, vizualizatsiya, motivatsiya va mustaqil izlanishni kuchaytirishi ta‘kidlanadi [1]. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, tasviriy tafakkur ustunligi, qiziqishning tez uyg‘onishi esa interaktiv faoliyatga moyillikni oshirib, AKT vositalarini samarali qo‘llash uchun qulay sharoit yaratadi. Multimedia taqdimotlari, elektron video darsliklar, interaktiv mashqlar va raqamli baholash vositalari dars samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi. Mazkur maqolaning maqsadi boshlang‘ich sinflarda AKTdan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini ilmiy asoslash, metodik modelini ishlab chiqish va amaliy tavsiyalar berishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Globalashuv sharoitida yosh avlodni raqamli madaniyat va mas‘uliyat ruhida tarbiyalash ham dolzarb: AKTdan foydalana olish bilan birga, axborot madaniyati va ijtimoiy mas‘uliyatni ham shakllantirish zarur [3].

Pedagogik adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, AKT ta‘lim jarayonini individuallashtirish, differensiallashtirish, ayniqsa, darslarni interaktiv tashkil etishda eng muhim vosita hisoblanadi. Mahalliy tadqiqotlarda: AKT o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirishi, bilimlarni mustahkamlanishi uchun zaruriy ehtiyoj sifatidan xizmat qilishi ta‘kidlanadi. [2]. Xorijiy tadqiqotlarda esa raqamli ta‘lim muhitining shaxsga yo‘naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlarni qo‘llab-quvvatlashi ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, AKT “o‘zi” bilan avtomatik samaradorlikni bermaydi: texnologiyani maqsadga muvofiq tanlash, metodik dizayn, o‘qituvchi kompetensiyasi va baholash mexanizmi mavjud bo‘lmasa, natija kutish qiyin. AKTni integratsiyada tizimli yondashuv zarurligi xalqaro taqqoslovchi tahlillarda ham qayd etiladi [7,8]. Maqola tahliliy-sintez yondashuvga tayangan holda normativ va konseptual manbalar [4,5]. raqamli kompetensiya doiralari [6] hamda AKT integratsiyasi bo‘yicha ilmiy tahlillar [7,8,9]. asosida ishlab chiqildi.

Mazkur maqolada ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish ularni umumlashtirish, taqqoslash, pedagogik kuzatuv, ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish kabi metodlardan foydalanildi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun bu, ayniqsa, muhim: o‘quvchilar yoshligi sababli ekran va kontent gigiyenasi, nazorat, motivatsiya va qo‘llab-quvvatlash kuchli bo‘lishi lozim [2].

Metodologik asos sifatida esa **kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim** hamda **konstruktivistik yondashuv** tanlandi. Ushbu yondashuvlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini individual ehtiyojlari hisobga olingan holda AKTdan samarali foydalanishni nazarda tutadi.

Metodik modelning konseptual asosida kompetensiyaviy yondashuv qismida natija “bilim” emas, amalda qo‘llanadigan kompetensiyalar (axborotni izlash, tanlash, yaratish, taqdim etish, muloqot, hamkorlik, xavfsizlik) ustida ishlar olib boriladi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim-o‘quvchi qiziqishi, ehtiyoji, darsga tayyorgarligiga mos individual yo‘l xaritasidan foydalaniladi. Konstruktivistik yondashuv yordamida o‘quvchi bilimni “qabul qilmaydi”, balki tajriba, muammo, loyiha orqali “quradi”; o‘qituvchi boshqaruvchi yoki nazoratchi vazifasida bo‘ladi.

Modelning bosh g‘oyasi esa AKT -maqsad emas, kompetensiyani shakllantirish vositasi ekanligidir.

Maqolada metodik model (strukturaviy sxema) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida AKTdan foydalangan holda: **o‘quv-bilish kompetensiyasi, axborot-kommunikatsion kompetensiya, ijodiy va tanqidiy fikrlash elementlari, hamkorlik va muloqot ko‘nikmalari, raqamli xavfsizlik va mas‘uliyatni rivojlantirish** sohalariga e‘tibor qaratish lozim.

Individualizatsiya (sur‘at, topshiriq darajasi, tanlov), Faollik va amaliyot (qo‘l ishlari), Muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish, Multimedia me‘yoriyligi (ortiqcha ekran videoroliklarisiz), Refleksiya (o‘quvchilar “nima o‘rgandim?”ni ayta olishi), Inkluzivlik (barcha qatnasha oladigan format) tamoyillaridan foydalanish zarur.

Metodik jarayon 5 bosqichli siklni o‘z ichiga oladi

1. **Diagnostika va profil:** boshlang‘ich sinf o‘quvchisining AKTga tayyorgarligi, o‘qish uslubi hamda qiziqishi (mini-so‘rov, kuzatuv).

2. **Motivatsiya-muammo:** real hayotga yaqin savol: “Nega...?”, “Qanday qilib...?”, “Nima uchun...?”.

3. **Kashfiyot va hamkorlikda qurish:** kichik guruhlarda yoki juftlik bo‘lib-AKT orqali izlash, tajriba, rasm/video tahlil.

4. **Mahsulot yaratish:** rasam yoki videolarga audio izoh, mini-taqdimot, raqamli hikoya, test, foto-hisobot.

5. **Baholash va refleksiya:** rubrika + o‘z-o‘zini baholash + tengdosh baholashi; “1 daqiqalik xulosa”.

Maqolada metodlardan muammoli ta’lim, loyiha metodi, o‘yinli ta’lim, tadqiqot elementi, “stansiyalar” usulini taqdim etildi. Ushbu metodlarni frontal (qisqa kirish), juftlik, kichik guruh, individual hamda aralash shklarida olib borilishi taklif sifatida kiritildi.

Metodik modeldan foydalangan holda AKT vositalari yordamida quyidagicha dars mashg‘ulotlari materiallarini tashkil etish mumkin.

- **Kontent:** animatsiya/video, interaktiv rasm, virtual laboratoriya (oddiy simulyatsiyalar).

- **Yaratish:** prezentatsiya, infografika, audio/video yozuv, onlayn test.

- **Hamkorlik:** umumiy doska (board), sinf chat, “savol-javob” platformasi.

- **Nazorat:** qisqa quiz, raqamli portfel.

Natijada esa, O‘quvchi: axborotni topishi, tushunishi, yaratishi, o‘zi tayyorlagan taqdimotni taqdim etishi mumkin bo‘ladi. Berilgan vazifa ustida ishlash mobaynida jamoada ishlaydi; raqamli odob va xavfsizlikka amal qiladi. O‘qituvchi: nazoratchi, ko‘makchi, dizayner, baholovchi (rubrika asosida) vazifasida bo‘ladi.

Baholash tizimi (kompetensiya asosida) **kriterial rubrika** (4 mezonli) asosida va berilgan ketma-ketlikda tashkil etildi:

1. Axborotning tanlanishi (to‘g‘ri/ishonchli)
2. Mahsulot sifati (aniqlik, mantiq, dizayn)
3. Muloqot/hamkorlik (vazifa taqsimoti, tinglash)
4. Refleksiya (o‘rganganini tushuntira olishi)

“Kichik, ammo samarali” tavsiyalar (boshlang‘ich sinf uchun)

- 1 darsda 1 ta asosiy AKT vositasi (ortiqcha platforma emas).
- 7–10 daqiqalik “raqamli faollik”, qolgan vaqt amaliy ishlash va muloqot.
- Har dars oxiri: “1 daqiqalik refleksiya” (nima bildim, nimaga erishdim).
- O‘quvchi mahsulotlarini “raqamli portfel”da to‘plash (yil davomida rivojlanishni ko‘rsatadi) [10].

Baholash formati: o‘qituvchi + o‘zini baholash + tengdosh baholash

Ushbu metodik model kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan hamda konstruktivistik yondashuvlar integratsiyasiga asoslanib ishlab chiqildi. Bu modelda AKT o‘quv maqsadi emas, balki o‘quvchilarning axborot bilan ishlash, muloqot, hamkorlik, ijodiy fikrlash va o‘z fikrini bayon qilish mahsulini yaratish kompetensiyalarini shakllantiruvchi didaktik vosita sifatida talqin etiladi. Jarayonda diagnostika-motivatsiya-kashfiyot-mahsulot-refleksiya sikli orqali qurilishi ko‘rinadi. Shaxsga yo‘naltirilgan differensial topshiriqlar hamda o‘quvchi profili asosida ta’limga moslashtirish orqali ta’minlanadi. Natijalar kriterial baholash (rubrika), o‘z-o‘zini baholash va tengdosh baholashi bilan o‘lchanib, o‘quvchilarning amaliy kompetensiyalari barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

NATIJALAR Boshlang‘ich sinflarda AKTdan tizimli foydalanish ta’lim samaradorligi yuqori darajada oshishini ko‘rsatdi. Olingan natijalar **jadval va diagrammalar** orqali umumlashtirildi va maqola oqrali taqdim etildi. (I jadval) An’anaviy

hamda axborot kommunikativ texnologiyalardan foydalanilgan darslardagi didaktik ta’sir ko‘rsatkichlarining natijalari berildi.

Didaktik ko‘rsatkich	An’anaviy dars	AKT asosidagi dars
O‘quv motivatsiyasi	O‘rtacha	Yuqori
Bilimni o‘zlashtirish	Qisman	Yuqori
Mustaqil ishlash	Past	Yuqori
Baholash tezligi	Sekin	Tezkor

I jadval.

(II jadval) Keyingi jadvalda boshlang‘ich sinflar uchun AKT asosidagi metodik model asosida dsrs berilishi va undan qay tartibda foydalanish kengroq tasvirlandi. AKT vositalaridan foydalanish o‘quvchilarga yangi bilimni osongina o‘zlashtirishlari hamda darslarni qiziqarli olib borish uchun zarurligi ham aks etildi.


Bosqich	Mazmuni	AKT vositalari
Motivatsiya	Qiziqish uyg‘otish	Video, animatsiya
Taqdimot	Yangi bilim berish	Interaktiv taqdimot
Mustahkamlash	Amaliy mashqlar	O‘yinlar, testlar
Nazorat	Baholash	Elektron baholash

II jadval

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bugungi kunda shunchaki darsliklar orqali darsga qiziqtirish mushkul bo‘lib turgan bir paytda, AKT dan foydalanilsa kelajagimiz yoshlarini yangi avlod darsliklariga qiziqishi yuqori darajada o‘sadi. Bu esa, (I diagramma), (II diagramma).orqali ham yaqqol ko‘rinadi.



(I diagramma).



(II diagramma).

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilarning bilish faolligi hamda yangi bilimlarni o‘zlashtirish darajasi sezilarli darajada oshgan.

MUHOKAMA Maqolaga ko‘ra natijalar AKTdan unumli foydalanish boshlang‘ich ta‘lim samaradorligini oshirishini tasdiqlaydi. Biroq axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish pedagogik maqsadga muvofiq bo‘lishi zarur. Texnologiyalar doimo an‘anaviy o‘qitish metodlari ya‘ni yangi avlod darslik mavzulari bilan uyg‘unlashtirilgan holda qo‘llanilgandagina ijobiy natija beradi.

Shuningdek, AKTdan ortiqcha foydalanish kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning diqqatini chalg‘itishi, sog‘lig‘iga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli o‘qituvchi videodarsliklardan me‘yorida foydalanishi, metodik jihatdan asoslangan holda qo‘llashi lozim.

XULOSA Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta‘lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi. AKTdan foydalanish samaradorligi texnologiya mavjudligi bilan emas, balki metodik dizayn va kompetensiyaviy natijalar bilan belgilanadi. UNESCO va OECD doirasida raqamli ta‘lim rivoji ta‘lim sifatini oshirish omili sifatida ko‘rilsa [4],[5] ilmiy tahlillar AKT integratsiyasida o‘qituvchi kompetensiyasi, baholash va sinf boshqaruvi hal qiluvchi ekanini ko‘rsatadi AKT kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning bilish faolligini kuchaytiradi, mustaqil fikrlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Taklif etilgan ushbu metodik model va amaliy tavsiyalar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun samarali metodik qo‘llanma bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Mazkur maqolada AKTning didaktik imkoniyatlarini tizimli model asosida asoslab berildi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Xoliqulova, N. (2020). Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalar. *Pedagogika*, 4, 45–49b.
2. Tokhirova, M. (2021). Raqamli ta’lim muhitida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kompetensiyalari. *Ta’lim muammolari*, 2, 31–36b.
3. Mardonov, S., Xodjamqulov, U., & Botirova, S. (2020). The need to educate young people in the context of globalization. *Journal of Critical Reviews*, 7(12), 243–247b.
4. UNESCO. (2020). *Education in a Digital World*. Paris.
5. OECD. (2021). *Digital Education Outlook*. Paris.
6. Redecker, C. (2017). *European Framework for the Digital Competence of Educators*. Luxembourg.
7. Voogt, J., & Roblin, N. (2019). A comparative analysis of ICT integration. *Computers & Education*, 143, 103–110b.
8. Erstad, O. (2018). Digital learning strategies. *Educational Research Review*, 24, 18–29b.
9. Kirschner, P., & De Bruyckere, P. (2017). The myths of digital natives. *Teaching and Teacher Education*, 67, 135–142b.
10. Fullan, M. (2020). *Learning and the Digital World*. New York.